

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil).– 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

O'ZBEK VA INGLIZ AFORISTIK DISKURSIDA ILM KONSEPTINING STILISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xudoyberdiyeva Oydin Ismoil qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi ilmga oid aforistik birliklarning stilistik hamda aksiologik xususiyatlari chog'ishtirma yo'nalishda tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor ilm, bilim, aql, ma'rifat, hunar singari o'zbekcha birliklar hamda knowledge, science, wisdom, learning, experience, method kabi inglizcha leksemalarning aforistik matndagi obrazli va baholovchi imkoniyatlariga qaratiladi. Tahlilda stilistik vosita konseptual mazmun, aksiologik baho va pragmatik yo'nalish bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqiladi. O'zbek aforistik an'anasida metafora, antiteza, parallelizm va takror ilmni ma'rifiy-axloqiy qadriyat sifatida mustahkamlashga xizmat qilsa, ingliz tilidagi aforistik birliklarda paradoks, ironiya, gradatsiya va sintaktik ixchamlilik bilish jarayonini muammolashtirish, fikrni tekshirish va intellektual refleksiyani kuchaytirishga yo'naladi. Ikki tilda ham ilm konsepti ijobiy epistemik mazmunga ega bo'lsa-da, uning uslubiy va aksiologik ifodalanishi turli kommunikativ urg'ularni yuzaga chiqaradi. Mazkur farqlar qat'iy milliy qarama-qarshilik sifatida emas, aforistik diskursda shakllangan barqaror semantik va pragmatik tendensiyalar sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: aforizm, ilm konsepti, bilim, knowledge, science, stilistik vosita, metafora, antiteza, aksiologiya, pragmatika, chog'ishtirma tahlil.

STYLISTIC AND AXIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE CONCEPT OF "KNOWLEDGE" IN UZBEK AND ENGLISH APHORISTIC DISCOURSE

Xudoyberdiyeva Oydin Ismoil qizi

PhD Candidate, Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Annotation. This article presents a comparative analysis of the stylistic and axiological characteristics of aphoristic units related to knowledge in the Uzbek and English languages. The primary focus is on the figurative and evaluative potential of Uzbek terms—such as *ilm* (knowledge/learning), *bilim* (knowledge/information), *aql* (intellect/reason), *ma'rifat* (enlightenment), and *hunar* (craft/skill)—and English lexemes—such as *knowledge*, *science*, *wisdom*, *learning*, *experience*, and *method*—within aphoristic texts. The analysis examines stylistic devices in close connection with conceptual content, axiological evaluation, and pragmatic orientation. While devices such as metaphor, antithesis, parallelism, and repetition in the Uzbek aphoristic tradition serve to reinforce knowledge as an educational and ethical value, English aphoristic units employ paradox, irony, gradation, and syntactic conciseness to problematize the process of cognition, scrutinize ideas, and enhance intellectual reflection. Although the concept of knowledge carries a positive epistemic meaning in both languages, its stylistic and axiological expression gives rise to distinct communicative emphases. These differences are interpreted not as rigid national contrasts, but as stable semantic and pragmatic tendencies formed within aphoristic discourse.

Keywords: aphorism, concept of knowledge, knowledge, science, stylistic device, metaphor, antithesis, axiology, pragmatics, comparative analysis.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i17/n09>

Aforizm mazmuniy sig'imi katta, shaklan ixcham va kommunikativ ta'siri kuchli bo'lgan nutq birliklaridan biridir. Unda muallifning individual kuzatuvi umumlashtirilgan hukm darajasiga ko'tariladi, tilning obrazlilik imkoniyatlari esa baholash va ta'sirchanlik bilan birlashadi. Ilm, bilim, aql, tafakkur, tajriba, haqiqat singari epistemik mazmunli birliklar ishtirokidagi aforizmlar bu jihatdan alohida ahamiyatga ega. Ular bilimning mohiyati haqidagi

fikrni yetkazish bilangina cheklanmay, jamiyatning o'rganish, bilish, tajriba orttirish va intellektual mas'uliyatga doir qadriyatlarini ham ixcham shaklda aks ettiradi.

O'zbek va ingliz aforistik an'analari chog'ishtirishda formal ekvivalentlikdan ko'ra mazmuniy va funksional moslik muhimroq. O'zbek tilidagi ilm leksemasi bilim, ma'rifat, ta'lim, aql, hunar, odob, kamolot kabi birliklar bilan keng semantik aloqaga kirishadi. Ingliz tilidagi knowledge esa science, learning, wisdom, experience, truth, method, inquiry kabi birliklar bilan kesishadi. Shu bois ilm va knowledge mutlaq bir-biriga teng tushunchalar sifatida emas, umumiy epistemik arxisema atrofida shakllangan, semantik hajmi va madaniy konnotatsiyasi turlicha bo'lgan konseptual maydon komponentlari sifatida qaraladi.

Aforizmlarning uslubiy tabiatiga oid tadqiqotlarda metafora, antiteza, parallelizm, takror, paradoks, ironiya va sintaktik ixchamlik kabi vositalarning umumlashtiruvchi hukmni kuchaytirishdagi roli ko'p bor qayd etilgan [1;2;3]. O'zbek tilshunosligida tasviriy vositalar, lingvopoetik tahlil va frazeologik birliklar semantikasi bo'yicha yaratilgan tadqiqotlar aforistik matnning obrazlilik mexanizmlarini izohlash uchun muhim nazariy zamin yaratadi [4;5;6]. Ilm va ta'lim mazmunli paremiologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari yuzasidan olib borilgan izlanishlar esa ushbu konseptning baholovchi va madaniy komponentlarini aniqroq talqin qilish imkonini beradi [7].

Mazkur maqolaning maqsadi o'zbek va ingliz tillaridagi ilmga oid aforizmlarda stilistik vositalarning aksiologik-pragmatik vazifasini aniqlashdan iborat. Asosiy e'tibor ayrim uslubiy hodisalarni statistik jihatdan sanashga emas, balki metafora, antiteza, parallelizm, takror, paradoks va ironiya singari vositalarning ilm konseptining qaysi mazmuniy qirrasini faollashtirishi, qanday baho yaratishi va adresatga qanday kommunikativ yo'nalish taklif qilishga qaratiladi.

Tadqiqot materiali o'zbek va ingliz aforistik an'alarida ilm va bilish mazmunini ifodalovchi mualliflik hikmatlari hamda aforistik birliklardan tanlandi. O'zbek tilidagi tahlilda ilm, bilim, aql, ma'rifat, hunar, ta'lim kabi birliklarning kontekstual imkoniyatlari, ingliz tilidagi tahlilda esa knowledge, science, wisdom, learning, education, experience, method, truth singari leksemalarning obrazli va baholovchi qo'llanishi e'tiborga olindi. Materialni tanlashda aforizmning ixchamligi, umumlashtiruvchi hukmga egaligi, ilmiy-bilish mazmunining markaziy o'rinda turishi hamda stilistik jihatdan tahlil qilish imkonini beradigan semantik zichlik asosiy mezon sifatida olindi.

Materialni tavsiflashda chog'ishtirma-tipologik, lingvostilistik, komponent, kontekstual va konseptual tahlil usullaridan foydalanildi. Har bir aforistik birlikning yetakchi leksik markazi, obrazli qurilishi, baholash yo'nalishi va pragmatik intensiyasi o'zaro aloqadorlikda ko'rib chiqildi. Chog'ishtirish jarayonida formal moslikdan ko'ra funksional-semantik yaqinlikka ustuvorlik berildi; shu sababli ilm va knowledge birliklari mutlaq lug'aviy ekvivalent sifatida emas, bilish faoliyatiga oid yaqin, biroq semantik hajmi turlicha bo'lgan konseptual birliklar sifatida talqin qilindi. Bunday yondashuv alohida aforizmning individual xususiyatini saqlagan holda ikki tildagi umumiy va farqli stilistik-aksiologik xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi.

Ilmga oid aforizmlarda metafora, antiteza, parallelizm, takror, paradoks va ironiya konseptning turli qirralarini ochishda muhim stilistik vosita vazifasini bajaradi. Metafora ilm va bilimning mavhum mazmunini konkret obraz orqali idrok etishga imkon bersa, antiteza bilim va bilimsizlik, donolik va nodonlik, nazariya va amaliyot kabi semantik qutblarni

keskinlashtiradi. Parallelizm va takror aforistik hukmning ritmik yaxlitligini ta'minlab, tayanch leksemaning baholovchi kuchini oshiradi. Paradoks va ironiya esa tayyor hukmni murakkablashtirib, adresatni fikrning ichki ziddiyatini anglashga hamda mavjud qarashni qayta baholashga undaydi.

Stilistik tahlilda alohida aforizmning ichki qurilishi asosiy kuzatuv nuqtasi sifatida olinadi. Yusuf Xos Hojibning *"Bilimli biladi bilim hurmatin, bilimsiz ne bilgay bilim qiymatin"* mazmunidagi hikmatida bilimli va bilimsiz subyektlar antitezasi parallel sintaktik qurilish bilan birlashadi. Bilim leksemasining takroriy qo'llanishi semantik markazni bir nuqtada ushlab turib, bilimning ijtimoiy va ma'naviy qiymatini kuchaytiradi. Uslubiy vositalar bu yerda bezak vazifasida emas, aksiologik chegarani belgilovchi mexanizm sifatida qatnashadi: bilimli shaxs qadriyatni angelaydigan subyekt, bilimsiz shaxs esa uning mohiyatini baholay olmaydigan qarama-qarshi qutbda tasvirlanadi.

Alisher Navoiyning *"Bilmaganni so'rab o'rganar olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim"* mazmunidagi hikmati ilm konseptining baholovchi tabiatini antiteza orqali ochadi. Birinchi qismda bilmaslikning o'zi salbiy holat sifatida hukm qilinmaydi; aksincha, savol berish va o'rganishga tayyorlik olimga xos fazilat sifatida ko'rsatiladi. Ikkinchi qismda bilmasligini tan olishdan uyalish shaxsning o'ziga zarar yetkazuvchi xulq sifatida talqin qilinadi. Natijada ilmga eltuvchi yo'l tayyor bilimga egalik bilan emas, bilmaganini anglash va o'rganishga intilish bilan bog'lanadi. Mazkur aksiologik buriish hikmatni oddiy nasihat doirasidan chiqarib, bilish jarayonining ichki madaniyatini ifodalovchi fikr darajasiga olib chiqadi.

Furqatning *"Ko'ngullarning sururi ilmdandur, ko'rar ko'zlarning nuri ilmdandur"* misralarida ilmning qadri parallelizm va metaforik obrazlarning uyg'unligi orqali yaratiladi. "Surur" va "nur" birliklari ilmni ruhiy quvonch hamda idrokni yorituvchi manba sifatida ifodalaydi. Nur metaforasi ma'rifat an'anasida keng tarqalgan bo'lsa-da, ayni aforistik kontekstda u ko'rish, anglash va yo'l topish semalarini birlashtiradi. Ilmning ijobiy bahosi tashqi tavsif orqali emas, insonning ichki holati va idrok imkoniyati bilan bog'langan obraz orqali shakllanadi.

Ingliz aforistik an'anasida ham bilimning qiymati obrazli va qarama-qarshi konstruksiyalar orqali ochiladi. Francis Baconning *"Knowledge itself is power"* hukmida knowledge va power o'rtasidagi metaforik tenglashtirish bilimning instrumental tomonini oldinga chiqaradi. Bilim bu yerda faqat ma'naviy boylik emas, insonning voqelikni anglash va unga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini kengaytiruvchi kuch sifatida talqin qilinadi. John Lockening *"Reading furnishes the mind only with materials of knowledge; it is thinking makes what we read ours"* fikrida reading va thinking o'rtasidagi funksional farq antitezaga yaqin mantiqiy qarama-qarshilik hosil qiladi: o'qish bilim uchun material beradi, tafakkur esa uni shaxsning haqiqiy intellektual mulkiga aylantiradi. Bunda knowledge tayyor mahsulot emas, faol mental qayta ishlash natijasi sifatida tushuniladi.

Keltirilgan misollar stilistik vositalarning aksiologik mazmun bilan bevosita bog'langanini ko'rsatadi. O'zbek aforizmlarida obraz ko'pincha ilmning qadriyat maqomini mustahkamlasa, ingliz tilidagi ayrim birliklarda u bilimning funksiyasi, hosil bo'lish sharti yoki chegarasini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Bunday tafovutni universal va milliy belgilarni keskin ajratish yo'li bilan emas, aforistik hukmning qaysi ma'no qirrasiga urg'u berishi orqali izohlash ilmiy jihatdan aniqroq natija beradi.

Metaforaning yuqori faolligi ilm konseptining mavhum tabiatiga bog'liq. Bilim, tafakkur yoki haqiqat bevosita predmet sifatida idrok etilmagani uchun ular ko'pincha nur, yo'l, kalit, xazina, tayanch, kuch, manba kabi konkret obrazlar orqali tushuntiriladi. O'zbek aforistik materialida ilmning nur, chiroq, ganj, yo'l, shifo kabi ijobiy qiymatli obrazlarga yaqinlashishi kuzatiladi. Bunday metaforalar mavhum epistemik tushunchani predmetlashtirish bilan birga unga oldindan ijobiy baho ham yuklaydi. Shu sababli metafora o'zbek aforistik an'anasida faqat poetik bezak emas, qadriyatni legitimlashtiruvchi vosita sifatida ishlaydi.

Ingliz tilidagi aforizmlarda ham knowledge va science ko'pincha treasure, key, power, light, road, source singari obrazlar bilan ifodalanadi. Biroq materialning muhim qismi metaforani tayyor ijobiy bahoni mustahkamlashdan ko'ra bilish jarayonining shartlari va chegaralarini muhokama qilishga xizmat qildiradi. Masalan, knowledge va practice, knowledge va ignorance, science va doubt kabi juftliklarda metaforik tasvir qarama-qarshilik yoki paradoks bilan birlashadi. Natijada obrazning vazifasi *"bilim yaxshi"* degan normativ hukmni kuchaytirishdan ko'ra, bilimning amaliyot, tajriba yoki o'z chegarasini anglash bilan munosabatini ochishga yo'naladi.

Antiteza har ikki tildagi aforizmlarda faol qo'llanishi ilmga oid aforizmlarning semantik tabiatiga mos keladi. Aforistik hukm mazmunni tez va ta'sirchan umumlashtirish uchun ko'pincha bilim – bilimsizlik, ilm – jaholat, nazariya – amaliyot, donolik – nodonlik, haqiqat – xato kabi oppozitsiyalardan foydalanadi. O'zbek aforizmlarida bunday qarama-qarshilik ko'proq baholovchi chegarani keskinlashtiradi: bilimli va bilimsiz subyektlarning ijtimoiy yoki ma'naviy mavqei bir-biriga zid qo'yiladi. Ingliz materialida esa antiteza ko'pincha ikki intellektual holatni muvozanatga keltiradi; nazariya va amaliyot, ishonch va shubha, bilim va tasavvur o'rtasidagi munosabat bir tomonlama inkor emas, balki fikriy muammo sifatida beriladi.

Parallelizm va takrorning o'zbek aforistik an'anasida faol qo'llanishi aforizmning og'zaki-estetik xotirada saqlanish xususiyati bilan bog'liq. Sintaktik parallel qurilish, ayniqsa, ikki qismli hikmatlarda semantik tenglik yoki qarama-qarshilikni ritmik shaklda mustahkamlaydi. Takror esa ilm, bilim, aql singari tayanch leksemalarni matn markazida saqlab, ularning aksiologik og'irligini oshiradi. Bunday birliklar ko'pincha pand-nasihati yoki didaktik xulosa bilan tugaydi. Adresat uchun nafaqat mazmun, balki uni esda saqlashga qulay sintaktik-ritmik shakl ham yaratiladi.

Ingliz aforistik an'anasida paradoks va ironiyaning o'ziga xos funksional yuklamasi alohida e'tiborga loyiq. Paradoks tashqi mantiqiy ziddiyat orqali ichki mazmunni aniqlik yaratadi. Bilim ortgani sari bilmaslik chegarasining kengroq sezilishi, ishonchning hamisha haqiqiy bilim belgisi emasligi yoki ilmiy izlanishning tayyor javobdan ko'ra savol bilan bog'lanishi kabi fikrlar aynan paradoksal qurilish uchun qulay semantik asos yaratadi. Ironiya esa ilmiy institut, universitet, mutaxassis, nazariya yoki *"bilimli odam"* haqidagi stereotipga masofali munosabat o'rnatadi. Shu tariqa ingliz aforizmida adresat tayyor aksiomani qabul qiluvchi emas, muallifning fikriy o'yiniga qo'shiluvchi va xulosani mustaqil chiqaruvchi subyekt sifatida ko'zda tutiladi.

Stilistik vositalarning funksional yuklamasi aksiologik mazmun bilan birgalikda ko'rilganda ikki til aforistik an'ansi o'rtasidagi farq aniqroq namoyon bo'ladi. O'zbek aforistik diskursida ilm ko'pincha shaxs kamoloti, odob, foyda, hunar, saodat va ma'rifat bilan bir semantik muhitda keladi. Bunday birikish ilmning faqat kognitiv resurs emas, balki ijtimoiy va

axloqiy qiymat ekanini kuchaytiradi. Ilmning nur, ganj, shifo yoki yo'lga qiyoslanishi ham shu baholash tizimini obrazli ravishda mustahkamlaydi. Aforizmning pragmatik maqsadi ko'pincha adresatni bilim olishga, o'rganishga, ustozga murojaat qilishga, bilganini amalda qo'llashga undashdan iborat bo'ladi.

Ingliz tilidagi materialda knowledge va science bilan bir qatorda method, experience, truth, doubt, imagination, practice kabi birliklarning faolligi bilish jarayonining ichki mexanizmlariga e'tiborni oshiradi. Bunday aforizmlarda bilim ko'proq "qanday olinadi?", "qanday tekshiriladi?", "qachon ishonchli bo'ladi?", "uning chegarasi qayerda?" kabi implicit savollar bilan birga keladi. Shuning uchun paradoks, ironiya, gradatsiya va ellipsisning qo'llanishi bilish jarayonining refleksiv tabiatini ochuvchi muhim stilistik omil sifatida qaraladi. Ular bilish jarayonini ochiq yakunlangan me'yor sifatida emas, qayta ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan intellektual holat sifatida tasvirlashga qulay uslubiy imkoniyat yaratadi.

Bu kuzatuv o'zbek aforistikasi faqat didaktik, ingliz aforistikasi esa faqat refleksiv degan qat'iy xulosani anglatmaydi. Har ikki tilda ham tarbiyaviy, falsafiy, hazilomuz, skeptik yoki poetik birliklar mavjud. Farq ayrim uslubiy va aksiologik modellarning qay darajada markazlashganida ko'rinadi. O'zbek materialida qadriyatni tasdiqlashga xizmat qiluvchi obrazli va ritmik vositalar ko'proq bir-birini qo'llab-quvvatlaydi; ingliz materialida esa muammolashtirish, qayta baholash va intellektual masofa yaratishga xizmat qiluvchi vositalar nisbatan faolroq.

Ilm konseptining semantik maydoni ham mazkur tafovutni izohlashga yordam beradi. O'zbek tilidagi ilm konseptining semantik markazida ilm va bilim turadi; ular donolik, hikmat, tafakkur va ma'rifat bilan mazmuniy yaqinlik hosil qilib, ta'lim, ustoz, o'qish, kitob, nur, gavhar va amal kabi birliklar bilan turli kontekstual aloqalarga kirishadi. Ingliz tilida knowledge va science birliklari wisdom, learning, truth, method, experience, education, reading, power va imagination kabi leksemalar bilan o'zaro semantik munosabatda namoyon bo'ladi. Ushbu qatlamlanish uslubiy vosita tanloviga ham ta'sir qiladi: o'zbek tilida qadriyat va obraz o'zaro yaqinlashsa, ingliz tilida epistemik jarayon va uning shartlari ko'proq markazga chiqadi.

Aforizmlarning pragmatik tabiatini hisobga olmasdan bunday farqlarni to'liq tushuntirish qiyin. Aforizm faktini xabar qilishdan ko'ra munosabat yaratadi. O'zbek ilmga oid birliklarida imperativ, maslahat, ogohlantirish yoki normativ xulosa shakllari faol bo'lib, adresatning xulqiy pozitsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatishga intiladi. Ingliz materialida esa deklarativ hukm ko'rinishidagi aforizm ham ko'pincha yashirin savol yoki paradoks qarama-qarshilik orqali adresatni muhokamaga tortadi. Bu holat ikki tildagi aforistik nutqning kommunikativ tabiatida farqli urg'ular mavjudligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar ilmga oid aforizmlarning stilistik tahlili alohida tasviriy vositalarni sanash bilan cheklanmasligi kerakligini ko'rsatadi. Metafora yoki antitezaning mavjudligi o'z-o'zicha lingvomadaniy xulosa bermaydi. Muhim jihat – ayni vosita qaysi semantik birlik bilan bog'lanayotgani, qanday baholash yaratgani va aforizmning kommunikativ vazifasini qanday o'zgartirayotganidir. Masalan, "bilim – nur" va "knowledge – power" modellari struktur jihatdan metaforik predikatsiyaga yaqin bo'lsa ham, ularning aksiologik markazi bir xil emas: birida ma'rifiy yoritish va yo'l ko'rsatish, ikkinchisida imkoniyat va ta'sir kuchi oldinga chiqadi.

Shu nuqtayi nazardan, chog'ishtirma tahlilda milliy-madaniy xususiyatni faqat muayyan tilga xos noyob obrazlar bilan tenglashtirish to'g'ri emas. Nur, yo'l, xazina, kuch kabi metaforalar turli tillarda uchrashi mumkin. Lingvomadaniy farq ko'proq ularning qaysi

konseptlar bilan birikishi, qanday baholash tizimiga kirishi va qaysi pragmatik vazifani bajarishida ko'rinadi. Shuning uchun alohida obrazning mavjudligidan ko'ra uning aforistik hukm ichidagi semantik va aksiologik vazifasini aniqlash muhimroqdir.

Aforistik birliklarning stilistik tuzilishi ilm konseptining ichki tashkilini ham ko'rsatadi. Metafora konseptni predmetlashtiradi, antiteza uning qiymat chegarasini belgilaydi, parallelizm va takror ijobiy yoki salbiy bahoni ritmik mustahkamlaydi, paradoks esa mavjud bilim chegaralarini ochadi. Ironiya ijtimoiy stereotipga masofa yaratadi, gradatsiya fikrning bosqichma-bosqich kuchayishini ta'minlaydi, ellipsis esa adresat zimmasiga semantik bo'shliqni to'ldirish vazifasini yuklaydi. Shu sababli stilistik vosita aforizmning tashqi bezagi emas, konseptual mazmunni tashkil qiluvchi faol komponent sifatida qaralishi lozim.

O'zbek va ingliz tillaridagi ilmga oid aforistik birliklarning tahlili umumiy epistemik mazmun mavjud bo'lsa-da, uning stilistik va aksiologik ifodalanishi bir xil emasligini ko'rsatdi. O'zbek aforistik an'anasida metafora, antiteza, parallelizm va takrorning qo'llanishi ilmni ma'rifiy, axloqiy va ijtimoiy qadriyat sifatida mustahkamlovchi didaktik yo'nalish bilan uyg'unlashadi. Ilmning nur, ganj, yo'l, shifo va kamolot bilan bog'lanishi ushbu ijobiy baholashni obrazli ravishda barqarorlashtiradi.

Ingliz aforistik diskursida metafora va antiteza bilan bir qatorda paradoks, ironiya, gradatsiya va ellipsisning funksional qo'llanishi bilish jarayonining refleksiv tomonini kuchaytiradi. Knowledge va science konseptlari tajriba, metod, shubha, amaliyot, tasavvur va haqiqat bilan aloqada talqin qilinadi. Natijada ilmiy bilish tayyor va mutlaq qadriyat sifatida emas, doimiy tekshirish va qayta anglashni talab qiladigan intellektual jarayon sifatida ham namoyon bo'ladi.

Chog'ishtirma tahlil uchun asosiy mezon alohida stilistik vositaning mavjudligi emas, balki uning semantik muhit va pragmatik vazifa bilan bog'lanishidir. Shu asosda aforistik matn ilm konseptining lingvistik ifodasi bilan birga, muayyan lingvomadaniyatdagi bilimga munosabatning ham ixcham modeli sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mieder W. Proverbs: A Handbook. Westport, CT: Greenwood Press, 2004.
2. Norrick N.R. How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs. Berlin: Mouton, 1985.
3. Gibbs R.W. The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding. Cambridge: Cambridge University Press, 1994.
4. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. Toshkent: Fan, 1977.
5. Yo'ldoshev B. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili. Toshkent: Fan, 2008.
6. Mahmudov N. Til va nutq. Toshkent: Fan, 2013.
7. Narmuratov Z.R. Ingliz va o'zbek tillaridagi "ta'lim va ilm" mazmunli frazemalarning semantik-struktur, lingvomadaniy xususiyatlari. Toshkent: Grand Kondor Print, 2024.
8. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
9. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. New York: Oxford University Press, 1997.
10. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi. Toshkent: Fan, 2010.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XVII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil). – 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.